

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JINOIY JAZOLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Mengliyeva Shahnoza Bahriddin qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 4-kurs talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolarning o'ziga xos jihatlari bayon etilgan. Bundan tashqari maqolada bu boradagi olimlarning fikirlari tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: Ayb, adolat, ozodlik, jinoyat, jazo, javobgarlik, mahrum qilish, shaxs, ijtimoiy, muayyan.

Jamiyatda tinchlikni barqarorlashtirish, inson omilini himoya qilish bugungi kunni dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Har kuni turli masalalarga duch kelmoqdamiz, turli huquqbuzarlikning shakllariga guvoh bo'lmoqdamiz. Huquqni muhofaza qilish sohasida inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, buzilgan huquqlarni tiklash, huquqbuzarning qilgan qilmishiga yarasha jazo berish, adolatni himoya qilish eng murakkab va masuliyatli ish hisoblanadi. Adalat tarozisini teng ushlab jabrlangan shaxsga ham, ayblanayotgan shaxsga nisbatan ham haqiqatni qaror topdirish sudyaning o'rnida katta ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat huquqi sohasida jinoyat kodeksi shaxsning qilmishiga yarasha jazoni belgilab, jinoyat obyekti, subyekti, motiv-maqsadi, jinoyat predmeti, jinoyat tarkibi, xususiyatlariga qarab jinoyat protsessual kodeksi jinoyat ishini qo'zg'atish, tergovchi, surishtiruvchi, prokurorning qonuniy harakatlari, ayblov dalolatnomasi, ayblov xulosasini tuzish, uni sudga jo'natish, ishni sudda ko'rish tartibi, sud tergov, dalillarni tekshirish, jabrlanuvchini, guvohlarni eshitish, prokuror ayblovin o'qib eshittirish, sud muhokamasi sud muzokarasi va sud hukmi qabul qilinish bosqichlari. Apelatsiya, kasatsiya va taftish sud instansiyasi bosqichlari tartib qoidalari haqida o'rganamiz. Jinoyat ijroiya kodeksida sud tomonidan tayinlangan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini ijro etish tartibino belgilovchi asosiy normativ hujjatdir. Shuningdek, sud hukmi bilan tayinlangan jazolarni qanday ijro etish, mahkumlarning huquqlari va majburiyatlari, jazoni ijro etish organlari faoliyatini o'rganib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazo turlari orasida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar o'z ahamiyatiga ko'ra alohida o'rin egallaydi. Ya'ni, ozodlikdan mahrum qilish jazosi mahkumga, ayniqsa ozodlikdan mahrum qilishga birinchi marta hukm qilingan shaxslarga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi, ijtimoiy adolatni tiklashga, yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga ko'maklashadi.

Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar masalan, axloq tuzatish ishlari jazosi, jarima, tuman (shahar) prokurorlari vakolatlariga tegishlidir. ATIGA xukm qilingan shaxsning o'z vaqtida sud tomonidan belgilangan % miqdoridagi summani, sud tomonidan belgilangan joyda o'tash yoinki, IIB organlari tomonidan belgilangan joylarda

o'tashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. . Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan, shuningdek shartli hukm qilish hamda majburiy xarakterdagi cheklanishlar tarzidagi jazolarni ichki ishlar organlari tomonidan ijro etilishi ustidan amaliy nazorat ta'minlanishi talab etiladi.

Bundan tashqari, ozodlikdan mahrum qilish o'zining o'ta repressivligi bilan tavsiflanadi, chunki aybdorga muayyan va ancha jiddiy huquqiy cheklovlarni tatbiq etish, xususan: erkin harakatlanish, mehnat faoliyati turini, dam olish vaqtini tanlash, yaqinlari va qarindoshlari bilan muloqot qilish huquqlarini cheklash bilan bog'liq. Ozodlikdan mahrum qilish, uning unsurlarini o'z ichiga olgan boshqa jazo turlari kabi, jazoning maqsadlariga boshqa (yengilroq) vositalar bilan erishish mumkin bo'lmagan holdagina qo'llanilishi lozim.

IIB organlari tomonidan belgilangan joylarda o'tashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan ahloq tuzatish ishi jazosiga hukm qilinganlarni tegishli IIB organlari tomonidan qonun bilan belgilangan muddatda ruyhatga olinganligi, qonunlar ijrosi hududiylik tamoyiliga asosan tegishli hududiy prokuror(tuman,shahar) prokurorlariga yuklatilgan.

Hozirgi sharoitda qonuniy kuchga kirgan hukmlar bo'yicha mahkumlarning uchdan bir qismidan ko'prog'i ozodlikdan mahrum qilinadi. «Muqobil jazo» atamasi milliy jinoyatchilik siyosatining jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy vositalaridan biri sifatida jazo samaradorligini oshirish yo'nalishi bo'yicha tuzatilishi munosabati bilan nisbatan yaqinda paydo bo'ldi. Jinoyat huquqi fanida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar umumiy atama – «muqobil jazolar» deb belgilanadi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu muammoni ko'rib chiqib, biz ko'pincha «qamoq jazosiga muqobil», «ozodlikdan mahrum qilishga muqobil», «muqobil ta'sir choralari», «muqobil choralari» va boshqa atamalarga duch kelamiz.

Muqobil jazolar. Hozirgi vaqtda ushbu atama jinoyat huquqi fanida keng tarqalmoqda. Muqobil jazo muammolari ilmiy forumlarda faol muhokama mavzusiga aylangan, shu bilan birga ularning nomlarida atamalar chalkashligi mavjudligini ta'kidlash joiz. Jinoyat kodeksiga ko'ra, jazo tizimi yengilroq jazodan og'iriga qarab tuzilgan, ayni chog'da bu tizimda tadqiqot olib borayotgan olimlar M.Xaydarov, S.I.Dementeva, A.S.Mixlin, V.M.Xomich, V.A.Yakushinlarning fikriga ko'ra, biror jazoni ijro etish jarayonida bir-birini o'rniga boshqasi bilan almashtirish (ya'ni muqobillik) imkoni bo'lishi kerak.. Jumladan, olim M.Usmonaliev o'z tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasi JKda belgilangan jazo tizimida nazarda tutilgan jinoiy jazolar ichida muqobil turdagi jazo tushunchasidan foydalanmasdan, jazolarni atigi ikki guruhga, ya'ni asosiy va qo'shimcha jazolarga tasniflagan, xolos.

Bizningcha, bugungi kunda jinoyat qonunchiligi va jazo tizimini yanada insonparvarlashtirish va xalqaro talablarga muvofiqlashtirish zarurati paydo bo'lgan davrda, muqobil jazo choralarini ilmiy jihatdan chuqur va puxta o'rganish, tadqiq etish – bu milliy jinoyat huquqi doktrinasi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Qolaversa, bugungi kunda «muqobil jazo» tushunchasi allaqachon milliy qonunchilikda ham o'z o'rnini topishga ulgurgan. Bu borada M.H.Rustamboev, Q.R.Abdurasulova, B.J.Axrarovlar so'nggi

yillarda JKga kiritilgan o'zgartishlar xususida fikr bildirib, jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda qayta tarbiyalash imkoniyati sifatida iqtisodiy jazo choralari qo'llash doirasi kengaytirildi, deb fikr bildirishgan.

Jamoatchilik fikri va davlat jinoyat-huquqiy siyosatini bunday qayta qurish asosiy g'oyasi ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar jinoyat-huquqiy choralari tizimini yaratishdan iborat edi.

Shu bilan bir vaqtda, jinoyat huquqi fanida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarning muqobilligi nimadan iborat, degan savolga javob beradigan yagona tushuncha hozirgacha mavjud emas.

Ko'rib chiqilayotgan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tizimi jinoyat huquqi tarmog'ida qanday o'rin egallaydi, degan savolga ham hanzgacha aniq javob berilgani yo'q.

Xulosa qilib aytganda aksariyat hollarda jinoyat uchun jazolarning mazkur turlari ijtimoiy muhimlik, jinoyatchilikka qarshi kurash nuqtai nazaridan, mahkumning qayta ijtimoiylashuviga ular qanday ta'sir ko'rsatishidan kelib chiqib o'rganiladi.

Jinoyat huquqi mazkur institutining huquqiy jihatlari esa, hozirgi vaqtda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar dunyoda keng tarqalganiga qaramay, hanzgacha yaxshi o'rganilgani yo'q.

Amaldagi qonun hujjatlarida jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarning turlari tushunchasiga ta'rif berilmagan.

Mazkur institutni tavsiflashga kirishishdan oldin yuqorida zikr etilgan tushunchaning asoslarini o'rganish va uning asosiy belgilarini aniqlash lozim deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Baskov V.I. Prokuror nazorati (darslik, rus tilida) M., "Bek" nashriyoti, 1998.
- 2.Davletov A. Dj. Prokuror nazorati (darslik, rus tilida). Nukus. Bilim.1999.
- 3.Rossiya Federatsiyasida prokuror nazorati. (darslik, rus tilida/ A.A. Chuvilyovning umumiy tahriri ostida/ M., 2000.
4. Inog'omjonova Z.F. umumiy tahriri ostida Jinoyat pro-sessi (umumiy qism, darslik, o'zbek tilida) T.: 2002 y., «Yangi asr avlodi».
5. Inog'omjonova Z.F. umumiy tahriri ostida Jinoyat pro-sessi (maxsus qism, darslik, o'zbek tilida) –T.: TDYUI.2003 y.